

CHO'LPON NASRIDA METAFORA

Xusanova Mohlarxon Odil qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO`TAU talabasi

Ilmiy rahbar- H.Ahmedov f.f.n, dotsent

Anatatsiya:

Ushbu maqolada o`zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lponning nasriy asarlarida, xususan "Kecha va kunduz" romanida foydalanilgan "metafora", uning asar mohiyati, qahramonlar harakteri va psixologiyasidagi va asarning badiiy jozibasidagi o`rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar:

Cho`lpon, "Kecha va kunduz" romani, metafora, Razzoq so`fi o`xshatish, Zebi, Dovud payg`ambar, Akbarali

Badiiy adabiyotda tasvirlanayotgan predmet yoki hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo`lgan predmet, hodisaga **solishtirish** tasvirlanayotgan predmet yoki hodisani yanada yorqinlashtiradi, obrazni yaqqolroq tasavvur qildiradi.

O`xshatishlar asar g`oyasidan kelib chiqqan holda turli tuman bo`ladi. Asl san`atkorlar kamdan-kam hollarda an`anaviy o`xshatishlarga murojaat qilishadi. Ular, asosan, o`xshatishlari original (o`ziga xos) bo`lishiga intilishadi. Muallif nutqidagi bu o`xshatishlar qancha original bo`lsa, asar ta`sirchanligi, personaj harakterini ochib berish shuncha oson bo`ladi.

Muallif asar hikoyachisi bo`lganligi sabab, u asarda "qomondonlik" vazifasini bajaradi: har bir predmet o`rni, o`y kechinmalari, fikr mulohazalari, harakatlantiruvchi muhitning shart- sharoiti, muomila munosabatini ko`rsatish orqali hammasini bir maqsadga- asarda ifodalaniyotgan g`oyani ro`yobga chiqarish uchun harakatga keltiradi. Bu harakatning zarur ikir chikirlarigacha tasvirlaydi. Ayni paytda, tasvirlanayotgan hamma narsa (obraz, muhit, tafsilot, detal)ga bilvosita munosabatini bildiradi. [1. Hotam Umurov, Adabiyotshunoslik nazariyasi, 61-bet]

Adib Abdulhamid Cho`lpon ijodida ham o`ziga hos, takrorlanmas, original o`xshatishlarni ko`plab uchratamiz. Birgina "Kecha va kunduz" romanini olaylik. Asardagi tekinox`r kimsa va munofiq dindor sifatida gavalangan Razzoq so`fi obrazini eshitganda personajlar ruhiyatidagi o`zgarishga e`tibor qarataylik:

- *Hamma jim qoldi. Har kim o`z oldida bir narsa topib shunga ko`z tikkan va u narsada Zebi- o`z otasini, Qurvonbibi- o`z erini, Salti- qovog`idan doim qor yog`ib turgan sovuq so`fini ko`rardi.* [2. Cho`lpon. "Kecha va kunduz", 8-bet]

Qovog`idan qor yoqqan, sovuq metaforalari orqali Razzoq so`fining harakteri, doim qovog`ini uyib yurishi va odamlar uni o`ylaganda faqat negative fikrga borishini tushunish mumkin.

Cho`lpon asarlarida qahramonlarini "sirdan" emas "ichdan" tanishtirish yo`lini tanlaydi. Bu usulni, albatta, ko`pgina asarlarda uchratish mumkin. Biroq, "Kecha" da buning alohida g`oyaviy-badiiy funksiyasi mavjud. Gap shundaki, qahramonlar fe`lidagi salbiy xususiyatlar ularning ijtimoiy ahvoli bilan ham bog`liq bo`lib, ularga zamona talabicha g`oyaviy- hissiy baho beriladi. Boz ustiga, adibning salbiy fikri qahramonga ham "yuqtiriladi". [3. Dilmurod Quronov. Cho`lpon nasri poetikasi. 154-bet].

Razzoq so`fi obrazini yanada chuqur ochib berish uchun quyidagi o`xshatishdan ham foydalanadi:

"Ikki qo`li orqasida, dam ichkariga kirib, dam tashqariga chiqib, dam hovliga o`tib, lablarini ari chaqqan odamday og`iz ochmasdan, indamasdan yura beradi..." ["Kecha va kunduz" romani, 13-bet]

Bu o`rinda Razzoq so`fining kamgapligiga ishora qilinyapti.

Badiiy adabiyotda metafora o`quvchini hayratga solish, unga zavq bag`ishlash uchun eng ko`p qo`llaniladigan vosita. [4. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslik lug`at, 171-bet]. Romanda aytiladiki:

"...Hast eshonimizni chaqirgan ekan, hammamiz birga bordik... Qiyomat suhbatlar bo`ldi!" ["Kecha va kunduz" romani, 72-bet]

Soʻfining bu gapidan ular borgan ziyofatni qanchalik dabdabali oʻtganini payqash qiyin emas. Nega “qiyomat” soʻzini oʻxshatish qilib olgan? Sababi, birinchidan, soʻfi dindor inson boʻlgani uchun u aytadigan oʻxshatishlar ham din bilan bogʻliq boʻladi. Ikkinchidan, oʻta qizgʻin kechgan avj suhbat huddi qiyomat kuniday degan maʼnoda shu oʻxshatish orqali kuchaytirilgan.

Zebi Choʻlpon asarining markaziy qahramonlaridan biri. U tabiatan nozik, boʻysunuvchan, mute, moʻmin, iffat- hayoli dilbar qiz. “ Muallif asarning boshidan oxirigacha Zebi harakteridagi samimiyatni, ochiqlikni eng muhim belgi sifatida koʻrsatadi. Uning tomirlarida navqironlik joʻsh uradi, koʻnglida esa tevarak- atrofni qurshab olganlarga, dugonalariga, bahorga, hamma- hamma narsaga muhabbat hokim!” [5. Naim Karimov. XX asr oʻzbek adabiyoti, 189-bet].

Asar boshidanoq Zebi tarifi bilan boshlanib, asosiy voqealar ining tevaragida sodir boʻladi. Bu qiz haqida Miryoqubning fikriga ahamiyat berilsa:

“-Juda yaxshi, **bulbul singari ovozi bor ekan, ovozini Dovud paygʻampar singari deyishadi....** “ (“Kecha va kunduz” romani, 66-bet)

Bulbul sayroqi, xushovoz qoʻshligi maʼlum. Azaldan ovozi chiroyli insonlarga nisbatan bulbul qiyos qilinadi. Nega Dovud paygʻambarga ham oʻxshatilgan?

Dovud alayhissalomning judayam xushovozligi haqida rivoyatlar mavjud.[6. “Qisasi Rabgʻuziy”, 2-kitob, 23-bet]. Mumtoz adabiyotda ham Dovud alayhissalom goʻzal va taʼsirchan ovozlilik ramzi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham Dovud paygʻambarga oʻxshatilgan.

M. Baxtin aytadi, “shaxs ekstensiv ochib berishlikni talab qilmaydi, u yolgʻiz bir tovushda namoyon boʻlish, birgina soʻz orqali ochilishi mumkin”.[7. M. Baxtin. Estetika slovesnogo tvorchestva, 130 s.]

Asardagi markaziy qahramonlardan biri Akbarali obrazi ham romanning gʻoyaviy konsepsiyasida juda muhim oʻrin tutadi. Roman yaratilishida yozuvchi Akbarali uchun qora boʻyoqlarni ayamaydi. Tuzuk-quruq oʻqishni bilmaydigan sodda mahalliy amaldor haqida asarda shunday deyiladi:

“Yurtni keksa odamlari oʻzaro soʻzlasharkan, bu mamlakatda hech bir xon va xonvachchaning muncha uzoq yurt soʻramaganini aytadilar. **Mallaxonlar, Xudoyorxonlar, Nasriddinbeklar yurt ustidan bahor bulutlari kabi kelib ketgan edilar. Akbarali mingboshi mana oʻn uch yildan beri mana shu masnadida oʻtiradi, davlati, obroʻsi, nufuzi tobora ortsa ortadiki, lekin kamaymaydi.**” (“Kecha va kunduz” romani, 56-bet)

Bahor fasli oʻzgaruvchan fasl. Havo tez-tez oʻzgarib turganligi sababli qanday ob-havo boʻlishini oldindan hech kim bilmaydi. Bu xonlarni ana shu bahor bulutiga oʻxshatishga sabab bular ham unchalik uzoq hukumdorlik qilolmagani ayon boʻladi. Va yana bir sababini afsus bilan tan olish mumkinki, Akbarali ham savodsizlik, siyosiy bilimning yoʻqligi aynan shular bilan oʻxshashib ketadi ham.

Asardagi qahramonlar “muayyan muhitda shakllanganlar, yashaydilar va goʻyo u bilan chatishib ketganlar”[8. Xrapchenko M. Lev Tolstoy kak xudojnik. 28 s.]. Akbarali ham shunday zamon bilan chatishib ketgan, yangiliklarga qarshi kishi.

Adib qahramonlarni xarakteridagi mayda detallarni ham ochib berishda yana koʻplab metaforalardan foydalangan. Asar original oʻxshatishlar, xalqona tili va betakrorligi bilan hali hamon sevib oʻqiladigan asarlar safida kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik/Masʼul murarrar: B. Valixoʻjayev. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b.
2. Чўлпон. “Кеча ва кундуз” романи. - Т.: ШАРК, 2000. – 288 б.
3. Куронов Дилмурод. Чўлпон насри поэтикаси / Масъул мух. О. Шарафиддинов, У.Норматов. – Т.: «Шарк», 2004. –288 б.
4. Куронов Дилмурод ва б.. Адабиётшунослик луғати. Т.: Akademnashr, 2013. – 408.
5. N. Karimov- XX asr oʻzbek adabiyoti, “Oʻqituvchi” T., 1999. – 544 б.
6. “Қисаси Рабғузий”. Иккинчи китоб. “Ёзувчи”. Т.: 1991. – 272 б.
7. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества / Сост. С. Г. Бочаров, примеч. С. С. Аверинцев и С. Г. Бочаров. М.: Искусство, 1979. 423 с. Бахтин М.
8. Храпченко М. Б. Лев Толстой как художник // Храпченко М. Б. Собр. соч. : в 4 т. М. : Худож. лит., 1980. Т. 2. 598 с